

---

## “FARG’ONA SUV TA'MINOTI” MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI QO'SHTEPA TUMANI FILIALI RAHBARI TAYINLANDI



Karimov Mashxurbek Shokirovich “Farg’ona suv ta'minoti” mas'uliyati cheklangan jamiyati Qo’shtepa tumani filiali rahbari lavozimiga tayinlandi.

Mashxurbek Karimov 1986 yili Toshloq tumanida tug’ilgan. 2011 yili Farg’ona politexnika institutini bitirgan.

Mehnat faoliyatini 2011 yili Zarkent Agrosanoat kasb-hunar kollejida o’qituvchilikdan boshlagan. Mehnat faoliyati davomida Toshloq elektr ta'minoti korxonasida elektromontyor va korxon boshlig’i, O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Toshloq tuman bo’limi Texnik kuzatuv sho’’basi bosh muhandisi, O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Quvasoy shahar bo’limi monitoring va hisob sho’’basi inspektori, O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Farg’ona shahar bo’limi texnik kuzatuv sho’’basi mutaxassisi lavozimlarida ishlagan.

Oilali, turmush o’rtog’i – uy bekasi, uch nafar farzandi bor.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2021-05-12 08:50:59